



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning
20__-20__-o'quv yiliga 10-sinflar uchun
II chorak adabiyot fanidan

DARS
ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 10-sinf adabiyot fanidan II chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
II chorak				
1.	O‘zbek adabiyoti tarixi: VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha. Umumlashtiruvchi kirish darsi	1		
2.	Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. Tarixiy davr. Muallif haqida. “Qutadg‘u bilig” asari. Asar tili. Asar matni bilan ishlash	1		
3.	Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. Loyiha	1		
4.	O‘zbek mumtoz adabiyoti: XIV asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha. Umumlashtiruvchi kirish darsi	1		
5.	Alisher Navoiy. “Xamsa: Saddi Iskandariy” dostoni	1		
6.	Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy”. Asar matni bilan ishlash	1		
7.	Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy”. Asar matni bilan ishlash	1		
8.	Nazorat ishi-3	1		
9.	O‘rta asrlar va Uyg‘onish davri jahon adabiyoti. Umumlashtiruvchi kirish darsi	1		
	Migel Servantes. “Don Kixot sarguzashtlari” romani. Tarixiy davr. Muallif haqida. Asarning yaratilish tarixi			
10.	Migel Servantes. “Don Kixot” romani. Asar matni bilan ishlash va muhokama qilish	1		
11.	Takrorlash	1		
12.	Nazorat ishi-4	1		
13.	Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: O‘zbek adabiyoti tarixi VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha
Umumlashtiruvchi kirish darsi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O‘zini - o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma’naviy ehtiyojga aylantirish;

badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash va ularga amal qilish;og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho bera bilish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish;

tadbirlarda (turli mavzudagi ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo‘lish;

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.


II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

O‘rxun-Enasoy yodgorliklari eng qadimgi turkiy yozma adabiyot namunalaridan bo‘lib, ular turkiylarning tili, 7 urf-odatlarini, madaniyati, tarixi va islomdan oldingi diniy qarashlarini o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. “O‘rxun-Enasoy yodgorliklari” nomi ostida Sibirdagi Yenisey va Lena daryolari havzalaridan tortib

Markaziy Osiyo va Mo'g'ulistongacha bo'lgan katta hududdan topilgan tosh bitiklari tushuniladi. Bu bitiklar

runiy yozuvida bo'lib, ulardan eng yiriklari VIII asrda Turk xoqonligini boshqargan Bilga xoqon va Kultegin hamda Turk xoqonligida maslahatchi bo'lgan To'nyuquq haqida hikoya qiladi. Turkiy xalqlar yashagan hududlarga islom dini kirib kelgandan keyin nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy va madaniy hayotda ham katta



o'zgarishlar ro'y berdi. Din bilan birga arab yozuvi ham kirib keldi va XX asrgacha barcha ilmiy va adabiy yodgorliklar shu yozuvda bitildi. O'z davrining eng yirik davlatlaridan biri bo'lgan Arab xalifaligida ilm-fan, adabiyot va san'at rivojlandi. Tarixga "Islom oltin davri" yoki "Musulmon Renessansi" nomi bilan kirgan bu davrda bizning ajdodlarimiz ham dunyoviy va diniy bilimlar ravnaqiga o'z hissalarini qo'shdilar. Xususan, IX asrda yashagan Abu Abdulloh Muhammad al-Buxoriy Payg'ambarimiz Muhammadning (s.a.v.) sahih (ishonarli) hadislarini to'plab, "Aljomi' as-sahih" ("Ishonarli to'plam") va "Al-adab al-mufrad" ("Odob durdonalari") kitoblariga jamladi. O'zbek qahramonlik dostonining yorqin namunasi "Alpomish" ham, ayrim mutaxassislar fikricha, X-XI asrlarda ko'chmanchichorvador qo'ng'i<0} qabilasi orasida Sirdaryoning quyi oqimlari va Orol dengizi atroldrida yaratilgan. Unda Alpomishning sevgan yori Barchinga yetishish, qaynotasi Boysarini qutqarish va o'z oilasi, o'z qo'rg'onini dushmanlardan himoya qilish yo'lida ko'rsatgan qahramonliklari orqali mardlik, vatanparvarlik, sevgi va sadoqat g'oyalari tarannum etiladi. XII asrdan boshlab Markaziy Osiyoda ilk tasavvufiy qarashlar - insonning komillikka erishish yo'li haqidagi ta'limotlar paydo bo'la boshladi. Xususan, yassaviya tariqatining, ilk tasavvuf she'riyatining asoschisi Ahmad Yassaviy o'zining "Devoni hikmaf'ida islom dinining asosi hisoblangan mehr-oqibat, ruhiy kamolot, iymone'tiqod, nafs, sabr-toqat kabi mavzularni tahlil qiladi. U zamondoshlarini mehrlil bo'lishga chaqiradi, nafs yo'lida mojarodan charchamaydigan aka-ukalardan, mehr-muruvvatni unutgan ota-onadan ranjiydi, inson zotining axloqsizligidan azoblanadi. Uning tili sodda va ravon hikmatlarida bugungi kun uchun ham o'ta dolzarb mavzular qalamga olingan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. "Musulmon Renessansi" davri vakili bo'lgan buyuk ajdodlarimizdan yana kimlarni bilasiz? Ular ilm-fan rivojiga qanday hissa qo'shgan?
2. "Devonu lug'atit turk'dan olingan ushbu parchalarda qanday tabiat hodisalari tasvirlangan?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. Tarixiy davr. Muallif haqida. “Qutadg‘u bilig” asari. Asar tili. Asar matni bilan ishlash”

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetentsiyasi:

mavjud axborot manbalari (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug‘at, ma’lumotnomalar, (audio-video yozuv), kompyuter, elektron pochta va boshq.)dan o‘quv maqsadlari doirasida foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o‘z faoliyatida qo‘llash;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi:

jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish; tadbirlarda (turli mavzudagi ko‘rik-tanlovlar, musobaqalar va h.k.) faol ishtirok etish, atrofdagi insonlar bilan xushmuomalada bo‘lish;

Milliy va umummadaniy kompetentsiyalar:

badiiy adabiyotda aks etgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o‘ziga xosliklarni anglash, ulardan ta’sirlanish, ulardagi go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish, yovuzlikdan nafratlana bilish;

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Yusuf Xos Hojib XI asrning 20-yillarida Qoraxoniylar davlatining g‘arbiy poytaxti Quz O‘rdi (Bolasog‘un) shahrida (hozirgi Qirg‘iziston hududi) tug‘ilgan. Zamonasining barcha asosiy ilmlarini atroflicha o‘rgangan, arab va fors tillarini mukammal bilgan. Ko‘p shaharlarga sayohat qilgan. 1070-yillarda “Qutadg‘u bilig” asarini tugatib, Qashqar

hukmdori Tavg‘ach Bug‘roxon binni Arslonxonga taqdim etadi. Bu xizmati uchun unga “Xos Hojib” (eshik og‘asi) unvoni beriladi.



“Qutadg‘u bilig” asari

“Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) asari turkiy yozma adabiyotdagi ilk badiiy doston bo‘lib, didaktik (pand-nasihati) yo‘nalishda yozilgan. Unda muallifning davlatni boshqarish, turli tabaqa vakillarining davlatdagi o‘rni, insoniy munosabatlar, odob-axloq haqidagi fikrlari to‘rt obraz suhbatlari orqali bayon qilinadi:

- Kuntug‘di - adolati hukmdor;
- Oyto‘ldi - halolligi va aqli tufayli cho‘ponlikdan vazir darajasiga ko‘tarilgan inson;
- O‘gdulmish (“aql bilan ziynatlangan”) - Oyto‘ldining dono o‘g‘li, otasidan keyin saroyda uning o‘rnini egallaydi;
- O‘zg‘urmish (“hushyor qiluvchi, sergaklantiruvchi”) - O‘gdulmishning tarki dunyo qilgan donishmand qarindoshi.



Asar Qayum Karimov va keyinchalik Boqijon To‘xliyev tomonidan hozirgi o‘zbek tiliga o‘g‘irilgan.

“Qutadg‘u bilig” asari qo‘lyozmasi

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1.X-XI asrlarda Markaziy Osiyo hududi qaysi davlat(lar) tarkibiga kirgan? Bu davlat(lar)da qanday ijtimoiy-siyosiy vaziyat hukm surgan?

2.“Qutadg‘u bilig” muqaddimasida bayon qilinishcha, kitob asosida to‘rt narsa yotadi: adolat, davlat, aql va qanoat. Sizningcha, asardagi to‘rt obrazdan (Kuntug‘di, Oyto‘ldi, O‘gdulmish, O‘zg‘urmish) har biri nimaning timsoli bo‘lib xizmat qiladi?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: Muallif asarni yozish va uni hukmdorga tortiq qilishdan qanday maqsadni ko‘zlagan bo‘lishi mumkin?

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

31 listdan iborat adabiyot fanidan 10-sinf II chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**